O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY TABAQALANISH JARAYONLARINING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

Ahmatov Shohruh Alijon o‘g‘li
O‘zbekiston Milliy universiteti mustaqil izlanuvchisi
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.23153658

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida 2021–2025-yillarda kechgan ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarining asosiy tendensiyalari rasmiy statistika ma’lumotlari va xalqaro tashkilotlarning tahliliy hisobotlari asosida tahlil qilingan. Kambag‘allik darajasi, o‘rta qatlam ulushi, daromadlar tengsizligi va hududiy tafovutlar dinamikasi ko‘rib chiqilib, ijtimoiy tuzilmadagi o‘zgarishlarni tashhislash va prognozlashning metodologik masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy tabaqalanish, ijtimoiy tuzilma, o‘rta qatlam, kambag‘allik, daromadlar tengsizligi, Jini koeffitsiyenti, ijtimoiy mobillik.

Аннотация. В тезисе на основе официальных статистических данных и аналитических докладов международных организаций проанализированы основные тенденции процессов социальной стратификации в Республике Узбекистан в 2021–2025 годах. Рассмотрена динамика уровня бедности, доли среднего слоя, неравенства доходов и территориальных различий, освещены методологические вопросы диагностики и прогнозирования изменений социальной структуры.

Ключевые слова: социальная стратификация, социальная структура, средний слой, бедность, неравенство доходов, коэффициент Джини, социальная мобильность.

Abstract. The paper analyzes the main trends of social stratification processes in the Republic of Uzbekistan in 2021–2025 on the basis of official statistical data and analytical reports of international organizations. The dynamics of the poverty rate, the share of the middle class, income inequality and territorial disparities are examined, and methodological issues of diagnosing and forecasting changes in the social structure are addressed.

Keywords: social stratification, social structure, middle class, poverty, income inequality, Gini coefficient, social mobility.

Kirish. Ijtimoiy tabaqalanish jamiyat a’zolarining daromad, ta’lim, kasbiy maqom va resurslardan foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha ierarxik taqsimlanishini ifodalaydi hamda ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda asosiy tahliliy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi hamda 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [1; 2].

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Ushbu vazifalar ijrosi jamiyatning ijtimoiy tuzilmasida sezilarli o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda, bu esa ularni ilmiy asosda tashhislash va prognozlash zaruratini kuchaytiradi.

Tadqiqot maqsadi va metodlari. Tadqiqotning maqsadi 2021–2025-yillarda O'zbekistonda kechgan ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarining asosiy tendensiyalarini aniqlash va ularni tashhislashga oid metodologik xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi hamda Jahon banki ma'lumotlarini ikkilamchi tahlil qilish, dinamik va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi. Nazariy asos sifatida M.Veberning ko'p o'lchovli tabaqalanish konsepsiyasi, P.A.Sorokinning ijtimoiy stratifikatsiya va mobillik nazariyasi, E.Giddensning ijtimoiy tengsizlik konsepsiyasi hamda V.V.Radayev va O.I.Shkaratanning stratifikatsiya tahlili metodologiyasi olindi [3; 4; 5; 6].

M.Veber ijtimoiy tengsizlikni iqtisodiy (sinf), ijtimoiy maqom va siyosiy hokimiyat mezonlari bo'yicha ko'p o'lchovli hodisa sifatida talqin etgan [3]. P.A.Sorokin ijtimoiy stratifikatsiyani aholining ierarxik joylashgan qatlamlarga differensiatsiyasi sifatida ta'riflab, shaxs va guruhlarning ushbu qatlamlar o'rtasidagi harakatini vertikal va gorizontal ijtimoiy mobillik tushunchalari orqali tahlil qilgan [4]. V.V.Radayev va O.I.Shkaratan transformatsiya davridagi jamiyatlarda tabaqalanishni hokimiyat, mulk, daromad va nufuz kabi bir necha mezonlar majmui asosida o'rganish zarurligini asoslagan [6]. Mazkur yondashuvlar ijtimoiy tuzilmadagi o'zgarishlarni bir mezon bilan cheklanmasdan, ko'p o'lchovli indikatorlar tizimi orqali baholash imkonini beradi.

Asosiy qism. Rasmiy ma'lumotlar tahlili mamlakat ijtimoiy tuzilmasida quyidagi asosiy tendensiyalarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

Birinchi tendensiya — quyi qatlamning izchil qisqarishi. Milliy kambag'allik chegarasi bo'yicha kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2023-yilda 11 foizga, 2024-yilda 8,9 foizga, 2025-yilda esa 5,8 foizga kamaydi. 2025-yilda 302 ming oila kambag'allikdan chiqarilgan bo'lib, hisob-kitoblarga ko'ra kambag'al aholi soni 2,2 million kishini tashkil etadi [7]. Hududlar kesimida eng yuqori pasayish Toshkent shahrida qayd etilib, kambag'allik darajasi 7,3 foizdan 3,5 foizga tushgan [7].

Ikkinchi tendensiya — o'rta qatlamning kengayishi. Jahon bankining 2026-yilda e'lon qilingan "O'zbekistonda kambag'allik va tenglikni baholash" hisobotiga ko'ra, o'rta qatlamga mansub aholi ulushi 2021-yildagi 37 foizdan 2025-yilda 72 foizdan yuqori darajaga yetgan, 2019–2024-yillarda esa aholining 44 foizi yuqoriroq iqtisodiy toifaga o'tgan [8]. Mazkur ko'rsatkichlar yuqoriga yo'naltirilgan vertikal ijtimoiy mobillikning faollashganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, qisqa muddatda o'rta qatlamga o'tgan aholi guruhlari daromadlarining kambag'allik chegarasiga yaqinligi ushbu qatlam barqarorligini alohida baholashni talab etadi.

Uchinchi tendensiya — daromadlar tengsizligining pasayishi. Daromadlar tengsizligini ifodalovchi Jini koeffitsiyenti 2024-yildagi 0,35 dan 2025-yilda 0,33 ga pasaygan [7]. Bu daromadlar taqsimotida qutblanishning kamayishini va ijtimoiy tuzilmaning nisbatan muvozanatlashuvini ifodalaydi.

To'rtinchi tendensiya — shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutning qisqarishi. 2025-yilda kambag'allik darajasi shaharlarda 5,2 foizni (2024-yilda 8,6 foiz), qishloq hududlarida 6,4 foizni (2024-yilda 9,2 foiz) tashkil etgan [7]. Jahon banki baholashiga ko'ra, shahar va qishloq kambag'allik darajalari o'rtasidagi farq 5,9 foiz punktdan 1,2 foiz punktgacha qisqargan [8]. Natijada kambag'allik asosan qishloqqa xos hodisa sifatidagi tavsifini yo'qotmoqda.

Beshinchi tendensiya — mehnat daromadlarining ijtimoiy mavqeni belgilovchi omil sifatida kuchayishi. 2025-yilda aholi jon boshiga o'rtacha oylik daromad 2,6 million so'mni tashkil etib, uning 72,6 foizi mehnat faoliyatidan olingan daromadlar, 11,8 foizi pensiyalar, 10,1 foizi qishloq xo'jaligi

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

faoliyati, 1,6 foizi ijtimoiy yordam hisobiga shakllangan [7]. Eng kam ta'minlangan oilalardagi erkaklar orasida maoshli ishda band bo'lganlar ulushi 2022-yildagi 18 foizdan 2025-yilda 46 foizga yetgan [8]. Ushbu ma'lumotlar ijtimoiy mavqening o'zgarishida bandlik va mehnat daromadlarining hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Ijtimoiy tabaqalanishning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

O'zbekistonda ijtimoiy tabaqalanishning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

Ko'rsatkich	2021	2023	2024	2025
Kambag'allik darajasi (milliy chegara), %	17,0	11,0	8,9	5,8
Shaharlarda kambag'allik darajasi, %	–	–	8,6	5,2
Qishloq hududlarida kambag'allik darajasi, %	–	–	9,2	6,4
O'rta qatlam ulushi (Jahon banki), %	37	–	–	72 dan ortiq
Jini koeffitsiyenti	–	–	0,35	0,33

Manba: [7; 8] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Tashhislash va prognozlashning metodologik masalalari. Tahlil natijalari ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarini baholashda quyidagi metodologik masalalarni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Birinchidan, milliy va xalqaro mezonlar bo'yicha olingan natijalar farqlanadi: 2025-yilda milliy chegara bo'yicha kambag'allik darajasi 5,8 foizni tashkil etgan bo'lsa [7], Jahon bankining xalqaro mezoni bo'yicha mutlaq kambag'allik darajasi 2,3 foizni tashkil etgan [8]. Bu tabaqalanishni tashhislashda qo'llanadigan indikatorlar va ularning hisoblash metodikasini aniq belgilashni talab etadi.

Ikkinchidan, 2026-yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olishning dastlabki natijalariga ko'ra mamlakat fuqarolari soni 39 047 321 nafarni tashkil etib, joriy hisob ma'lumotlaridan (38 236 704 kishi) 810,6 ming nafarga ko'p ekani aniqlangan [9; 10]. Mazkur holat nisbiy ko'rsatkichlarni yangi demografik baza asosida qayta hisoblash va prognoz modellarida ushbu tuzatishni inobatga olish zaruratini yuzaga keltiradi.

Uchinchidan, ijtimoiy qatlamlarni faqat monetar ko'rsatkichlar asosida aniqlash tabaqalanishning ko'p o'lchovli xususiyatini to'liq aks ettirmaydi. Shu sababli daromad mezonlari bilan bir qatorda ta'lim darajasi, kasbiy maqom va bandlik sifatini ham qamrab oluvchi kompleks yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiq.

Xulosa. O'tkazilgan tahlil asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. 2021–2025-yillarda O'zbekistonda quyi qatlamning qisqarishi va o'rta qatlamning kengayishi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy tuzilma transformatsiyasi kuzatildi.

2. Daromadlar tengsizligining pasayishi va shahar–qishloq tafovutining qisqarishi ijtimoiy tuzilmaning hududiy jihatdan muvozanatlashuvidan dalolat beradi.

3. Keyingi bosqichda ustuvor vazifa o'rta qatlam barqarorligini ta'minlashdan iborat bo'lib, Jahon banki hisobotida aholi daromadlarini oshirish, barqaror va munosib bandlikni kengaytirish hamda xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini kuchaytirish ustuvor yo'nalishlar sifatida qayd etilgan [8].

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

4. Ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarini tashhislash va prognozlash uchun milliy va xalqaro metodologiyalarni uyg‘unlashtirgan, aholini ro‘yxatga olish natijalariga asoslangan ko‘p o‘lchovli indikatorlar tizimini ishlab chiqish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “«O‘zbekiston — 2030» strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (lex.uz).
3. Вебер М. Избранные произведения. – М.: Прогресс, 1990. – 808 с.
4. Сорокин П.А. Человек. Цивилизация. Общество. – М.: Политиздат, 1992. – 543 с.
5. Гидденс Э. Социология. – М.: Эдиториал УРСС, 1999. – 704 с.
6. Радаев В.В., Шкаратан О.И. Социальная стратификация. – М.: Наука, 1995. – 237 с.
7. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. O‘zbekistonda 2025-yil yakunlari bo‘yicha kambag‘allik darajasi va aholi daromadlari tahlili. – Toshkent, 2025-yil dekabr.
8. Jahon banki. O‘zbekistonda kambag‘allik va tenglikni baholash: Farovonlikka erishish va barcha uchun imkoniyatlarni kengaytirish sari. – 2026.
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekistonning doimiy aholisi soni (2026-yil 1-yanvar holatiga) // stat.uz (murojaat sanasi: 03.10.2026).
10. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Aholini ro‘yxatga olishning dastlabki natijalari, 2026-yil // stat.uz (murojaat sanasi: 03.10.2026).

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.